XXI ASR O‘QUVCHISI UCHUN ZARUR KO‘NIKMALARNI O‘RGATUVCHI MODEL - 4 K TARKIBI XUSUSIDA

Qurbonova Baxtixon Qo‘chqarbayevna
FarDU professori, pedagogika fanlari doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.11200061

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi model – 4K xususida fikr bildiriladi, shuningdek, uni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va talabalarda 4K faoliyatini shakllantirish xususida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim mazmuni, ijodkor shaxs, 4K tamoyili, ta’lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shaxsning shakllanishi.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о модели 4К, которая является движущей силой развития государства, обучает необходимым навыкам студента 21 века. Выделены мысли о заинтересованности в формировании деятельности 4К у школьников и студентов в современном образовательном процессе.*

Ключевые слова: *образовательный контент, творческая личность, принцип 4К, образовательная эффективность, творческое мышление, овладение навыками, формирование личности.*

Abstract. *This article talks about the 4K model, which is the driving force behind the development of the state, teaching the necessary skills to a student of the 21st century. Thoughts about interest in the formation of 4K activities among schoolchildren and students in the modern educational process are highlighted.*

Keywords: *educational content, creative personality, 4K principle, educational effectiveness, creative thinking, mastery of skills, personality formation.*

Kirish

Ta’limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini, shuningdek, innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko‘rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. XXI asr fan va texnikaning rivojlanishi ilm-fanga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan ilm-fan mavqeyini oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimi, mahorati, ijodkorligi, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, boshqaruvchanligini rivojlanish cho‘qqisiga chiqishda kreativ ta’limning o‘ziga xos ahamiyati bor. Jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlashning yuqori darajasini ta’minlash uchun sharoitlar yaratish, zamonaviy oliy ta’lim bitiruvchilarini tanqidiy fikrlashini shakllantirish, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo‘lishi uchun zaruriy bazani yaratish, shu jumladan, innovatsion faoliyatga, innovatsion ta’lim muhitiga kasbiy tayyorlikni talab qiladi. Bu o‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganligidadir. Ushbu tamoyil o‘quvchilarga quruq ma’lumotlarni yod oldirish yoki shunchaki o‘qish va yozishni

o‘rgatish bilan cheklanmaydi. O‘quvchilarga bu tamoyilda nafaqat fanlarni balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganish tavsiya etiladi.

Zamonaviy ta’lim asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga darslarda mustaqil va kreativ fikrlashga shart-sharoit yaratib berishi, an’anaviy ta’limdan noan’anaviy ta’limga o‘tish va shu asosda ta’lim samaradorligini oshirish yotadi. Ta’limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bevosita bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri “4K” modelidir. Hamkorlik, qo‘shma faoliyat, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan “4K” modeli yod olishga yo‘naltirilgan kontent o‘rniga o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim omildir.

2023-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olishni boshlashdi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning “4K” tamoyili asosida ishlab chiqilganligidadir. Ya’ni bu tamoyilda ma’lumotlarnii yod oldirish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

4K nima degani? Boshlang‘ich sinflarda qo‘llanishi boshlanayotgan yangi tamoyil 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

1) hamkorlik: darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

2) kommunikativlik: o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

3) kreativ fikrlash: o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

4) kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. o‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni respublikamizdagi maktablarda joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K”ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo‘q deb aytish noto‘g‘ri. Avvalo o‘quvchilaming bilim va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o‘qituvchining o‘zi kasb mahoratidan kelib chiqib, “4K” yondashuvining mazmun va mohiyatini anglab yetishi va dars jarayonida qo‘llashi lozim. “4K”

yondashuvining asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo‘lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o‘quvchining mustaqilligini ta’minlash, o‘qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

O‘qituvchi va o‘quvchilarni faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitishni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi. Hozirgi kun o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu muhim kompetensiyalami rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Dars jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar ham “4K” yondashuviga asoslangan holda tashkil etilsa, dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

“4K” yondashuvi haqida Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi 372-sonli “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi buyrug‘ida ham ta’kidlab o‘tilgan. Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olishni boshlashdi. Darsliklaring asosiy xususiyatlaridan biri - ulaming “4K” tamoyili asosida ishlab chiqilganligidadir. Ya’ni bu tamoyilda ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

“Sinkveyn” texnologiyasining qo‘llanishi:

Sinkveyn - fransuz tilida “5 qator” ma’nosini beradi.

Sinkveyn - ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan oq qofiyalanmagan she’rdir. U fikrlash bosqichida ham ishlatilishi mumkin.

Sinkveyn yozish qoidalari:

1- qator: Mavzuni bir so‘z yordamida ifodalash (ot tanlanadi)

2 - qator: Mavzuni 2 ta so‘z bilan ifodalash (2 ta sifat)

3 - qator: Ushbu mavzu bo‘yicha harakatlarni ifodalash (3 ta fe’l)

4 - qator: Mavzuga munosabat, his - hayajon (jumla tuzish)

5 - qator: Mavzu sinonimini bir so‘z bilan takrorlash.

Masalan:

1. Quyosh.
2. Zarrin, issiq.
3. Qizdiradi, yoritadi, isitadi

4. Quyoshning zarrin nurlari olamni charog‘on etadi!

5.Oftob.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash va kreativlikni rivojlantiradi.

“Piyola” metodi qo‘llanilishi:

O‘quvchilar doira shaklida turishadi va bir-birlariga piyolada choy uzatish orqali berilgan topshiriq yuzasidan ma’lumot aytadi. Lekin mashqning sharti shuki, bir kishi qilgan harakatni ikkinchi kishi takrorlamasligi kerak. Masalan: kimdir piyolani qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib turib ma’lumot aytib uzatsa, kimdir qo‘lini orqasiga qo‘yib ma’lumot aytib uzatadi va hokozo... Agar kimdir sheriklari qilgan harakatni takrorlasa o‘yindan chiqadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarda kommunikativlik va kollaboratsiyani rivojlantiradi.

“Assesment ’’metodi qo‘llanilishi:

“Assesment ’’metodi - shaxsning o‘z-o‘zini baholashiga yo‘naltirilgan metod.

“Assesment ” - inglizcha so‘z bo‘lib, “baholash” degan ma’noni bildiradi. Uning maqsadi: O‘quvchilar bilimini bir necha xil yondashuvlar orqali baholash, tahlil qilish, sinab ko‘rish va o‘z o‘zini baholashga imkoniyat yaratadi. Ushbu metodni quyidagicha tashkil etish mumkin:

1.O‘quvchilar 4 guruhga bo‘linishadi.

2.Guruhga sardor saylanadi. Sardorlarga topshiriqni bajarish bilan birga boshqa guruhlar ishini baholab borish topshiriladi.

3.Sardorlar mavzu yuzasidan savollar yozilgan konvertlami tanlaydilar.

4.Guruhlar o‘z topshiriqlarini flipga yozib, chizib tayyorlaydilar.

5.Taqdimot. Har bir guruh vakillari o‘z topshiriqlarini navbat bilan bayon etadilar.

6.Guruh sardorlari boshqa guruhlar ishini baholaydilar, barcha sardorlar ballari umumlashtirilib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarda kritik fikrlashini rivojlantiradi.

“Yumaloqlangan qor” metodining qo‘llanilishi:

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo‘lgan holda o‘zlashtirish imkonini beradi hamda o‘quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;
- ulaming orqa tomoniga mavzuni o‘zlashtirishga oid bir necha variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;
- sinf o‘quvchilari ikki yoki uch guruhga bo‘linadilar(guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniladi);
- har bir guruh a’zolari bir nechta juftliklarga biriktiriladilar;
- har bir juftlik bir variantidagi topshiriqni bajaradi;
- jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo‘lim yoki bob bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlami mustahkamlash jarayonida foydalanilsa yaxshi samara beradi. Umuman olganda, ushbu texnologiyalar o‘quvchilarda kommunikativlikni, kreativ va kritik fikrlashni rivojlantiradi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashdan iborat. Shu bois, o‘qitish va tarbiyalash jarayoni ta’lim sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ham talab etmoqda. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘sishida ko‘rish mumkin.

REFERENCES

1. Aronson E., Blaney N., Stephan C., Sikes J., Snapp M. The jigsaw classroom / E.Aronson, N.Blaney, S.Stephan, J.Sikes, M.Snapp. – Beverly Hills: Sage Publi-cations, 1978. – 197 p.

2. Asqarova O‘., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug’at. “Navro‘z” nashriyoti− Toshkent: 2014.

3. Mead M. Cooperation and Competition Among Primitive People / M.Mead. – McGrawHill, 1997.

4. Park C.W. The cooperative system of education. An account of cooperative educa-tion as developed in the College of Engineering, University of Cincinnati. – Washington: Government Printing Office, 1916. – 48 p.

5. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.

6. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo‘chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg‘ona: “Classic” nashriyoti-2022. –240 b.

7. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.

8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 93 b.

9. Sharan, S., Sharan Y. Small group-teaching / S. Sharan, Y. Sharan. – Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Publications, 1996. – 237 p.

10. Qurbonova B. Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish. Scientific journal of the Fergana State University. 2023 Jun 22(1):24-.

11. Kurbonova B. Preparation of students for social life based on cooperative pedagogy as a pedagogical problem. Science and innovation. 2023;2(B1):387-91.

12. Kurbanova B. Modern forms of organizing students independent work as a pedagogical problem. Science and innovation. 2023;2(B2):525-8.